

AHOLI BANDLIGINI TA`MINLASHGA OID QONUNCHILIK IJROSI YUZASIDAN PROKUROR NAZORATIDA VUJUDGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR

*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Prokurorlik faoliyati” yo`nalishi magistiri
Izzatillayev Mirjalol Odiljon o`g`li*

Annotatsiya: Mamlakatimizda aholi soni oshib borgan sari ularning bandligini ta`minlash ham davlatning asosiy vazifalaridan biri hisolanadi. Aholini sifatli mehnat sharoitlari bilan ta`minlash, o`zini o`zi band qilgan shaxslarning rag`batlantirilishi, tadbirkorlikni qo`llab quvvatlash ushbu funksiyani ta`minlashda o`zining ijobiy natijasini ko`rsatib kelmoqda. Ammo bugungi kunda bandlik masalasini ta`minlashda bir qator muammolar mavjud. Mazkur maqola Aholi bandligini ta`minlashning bugungi kundagi holatini va qonunchilikda belgilangan normalar tuzulishi haqida ma`lumot beradi.

Kalit so`zlar: Ishsizlik nafaqasi, ishsizlik, subsidiya, grant, mehnat mehnatga o`qitish.

Annotation: As the number of people in our country increases, ensuring their employment is considered one of the main tasks of the state. Providing the population with quality working conditions, encouraging self-employed persons, supporting entrepreneurship has been showing its positive results in providing this function. But today there are a number of problems in ensuring employment. This article provides information about the current state of ensuring employment of the population and the formation of norms established by the legislation.

Key words: unemployment benefit, unemployment, subsidy, grant, labor training.

Mamlakatimizda mehnat bozoridagi haqiqiy holatni chuqur tahlil qilish va o`rganish asosida aholi bandligini ta`minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarni shakllantirish, ularning bajarilishini muvofiqlashtirish, o`rganib borish, nazorat qilish, yangi ish o`rinlarini tashkil etish bo`yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish va aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari uchun ish joylari zaxirasini (kvota) belgilash yuzasidan aniq maqsadga yo`naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda bandlik to`g`risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorat qilish jarayonida ko`plab qonunchilik normalariga asoslanadi. Bugungi kunda

ushbu yo`nalish bo`yicha 20 dan ortiq normativ huquqiy hujjatlar mavjud. Bandlik¹ - bu ikki tomon o`rtasidagi munosabatlar, odatda ish haqi to`lanadigan shartnoma asosida bir tomon foyda olish uchun, notijorat tashkilot, kooperativ yoki boshqa tashkilot ish beruvchi, ikkinchisi esa xodimdir. Bandlik odatda mehnat sohasidagi me`yoriy-huquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi.

bandligini ta`minlash masalalari nafaqat, mamlakatimiz qonunchilik sohasida, balki umumjahon mehnat qonunchiligi sohasida o`ziga xos muhim va keng o`ringa ega. Shu munosabat bilan, ushbu institut muntazam ilm ahllari tomonidan tadqiq qilindi, takomillashtirildi va amaliyotga tatbiq etildi. Holbuki, aholi bandligini ta`minlash bo`yicha qonunchilik masalalari dolzarbligini yo`qotmagan. Shuning uchun, ushbu tadqiqot ishimizda dastlab aholi bandligini ta`minlashda prokuror nazorati, maqsadi, vazifalari va predmeti o`rganildi. **Bandlik yoki aholini ish bilan ta`minlash**² — mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg`ul bo`lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo`yicha kishilararo munosabatlarni ifoda etadi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda tadbirkorlikni, o`zini ish bilan mustaqil ta`minlash (*o`zicha bandlik*)ni, shaxsiy tomorqa xo`jaligidagi ishni, uy xo`jaligida band bo`lish va bolalarni tarbiyalash bilan shug`ullanish, davlat va jamoat vazifalarini bajarishni, o`rta maxsus va oliy o`quv yurtlarida kunduzgi o`qishni ham o`z ichiga oladi.

Bugungi kunda aholi bandligini ta`minlashda nogironligi bo`lgan ammo mehnatga layoqatli shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo`yicha aniq bir meyoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmagan. Bugungi kunda mehnat bozorida eng kam songli bunday insonlar mehnat huquqlaridan foydalanishyapti. Tahlillar shundan dalolat beradiki, aholi bandligini ta`minlashga quyidagi omillar salbiy ta`sir ko`rsatmoqda: aholi bandligini ta`minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda mehnat bozorining amaldagi holati puxta tahlil qilinmasligi; yangi ish o`rinlari tashkil etish uchun davlat buyurtmasini va aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ishga joylashtirish uchun kvotalar belgilashda ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni aniq maqsadga yo`naltirilmaganligi; mehnat organlariga murojaat qilgan ishsizlarning ishga joylashtirilishini ta`minlash, aholini jamoat ishlarida ishtirok etishga jalb qilish ishlari etarli tashkil etilmaganligi, ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag`larni talon-toroj qilish holatlariga yo`l qo`yilayotganligi; ishga muhtoj shaxslarni, ayniqsa, band bo`lmagan yoshlarni kasbga tayyorlash, qayta

¹ Internet manbasi ([Wikipedia](https://en.wikipedia.org/wiki/Bandlik))

² O`zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to`g`risida"gi Qonuni

tayyorlash va ularning malakasini oshirish iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining real ehtiyojlaridan kelib chiqib, tashkil etilmaganligi; bandlikka ko‘maklashish bo‘yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilma va raqobat muhitini yaratilmaganligi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta‘lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik sub'ektlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoatchilikning aholi bandligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha hamkorligining samarali tashkil etish bo‘yicha mexanizmlari shakllantirilmaganligi; nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari va tadbirkorlik sub'ektlarining aholining ijtimoiy zaif qatlamini, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb etish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligi; vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash markazlarida ish izlovchilar uchun etarli sharoitlar yaratilmaganligi; xorijda ishlash istagini bildirgan fuqarolarni tanlash, tayyorlash, moslashtirish tadbirlarini o‘tkazish va xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilish orqali ularga xorijda mehnat faoliyatini olib borishga doir huquqlarini amalga oshirish ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi. Aholi bandligini ta‘minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini tizimli tashkil etish, bu yo‘nalishda nazorat tadbirlarini to‘laqonli va sifatli o‘tkazish, jamoatchilik nazoratini yuksaltirish aynan yuqoridagi muammolarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to‘g‘risidagi arizalar va boshqa ma‘lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik ahvoli prokuror tomonidan choralar ko‘rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Shuningdek, qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar o‘tkazishga ish rejalari, hay‘at majlisi, muvofiqlashtiruvchi va idoralararo kengashlar qarorlari, Bosh prokuratura rahbariyati tomonidan ijrosi talab qilingan hujjatlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar asos bo‘ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. _ Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 416 b;
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 oktyabrdagi “Ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish mintaqaviy markazlarida o‘qishga qabul qilish, kasb-hunarga o‘qitish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” gi 824-sonli qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-sonli Qarori
5. www.huquqburch.uz

-
6. www.lex.uz;
 7. www.consultant.ru;
 8. <https://mehnat.uz>

